

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 4

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 4

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

LINGVISTIKA

Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova

O'zbek tilida metafora va metonimiya shakllanishida milliy tafakkurning o'рни.....6

Zoxira Xidraliyeva

Janubiy Qozog'iston o'g'uz shevalarining o'zaro munosabati23

Hairatullah Barlas

Tuhfetul-Abidin'in Şekil Özellikleri35

ADABIYOTSHUNOSLIK

Elmira Adilbekova

Hacı Bektaş Veli'nin Ahlaki Düşüncesi: Anadolu Tasavvuf Geleneğinde Etik Bir Yaklaşım.....51

Feruza Burxonova

Ijodkor konsepsiyasi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlar.....72

Parviz Izzatillayev

Asliy matn va forsiy tarjima qiyosi: "Majolis un-nafois" – "Hasht bihisht"89

Gulrux Xudoyorova

Lirik kechinma tabiati110

Тюркан Вердиева

Отражение литературно-культурной среды Гянджи XII века в драматических произведениях XX века Мехти Гусейна и Камали Агаевой127

Leyla Karimova

Makedoniyalı İskenderin Azərbaycana Seyaheti: Tarih ve Nizami Gencevinin Hayal Dünyasında Yansıması140

SOTSILOGIYA

Fatxulla Abduvaliyev

Globalashuv jarayonlarining ta'lim migratsiyasiga ta'siri152

CONTENT

LINGUISTICS

Muhayyo Hakimova, Feruza Rahmatova The role of National Worldview in the Formation of Metaphor and Metonymy in the Uzbek Language.....	6
Zakhira Khidraliyeva The Relationship Between the Oghuz Dialects of Southern Kazakhstan.....	23
Hayratullah Barlas Formal Characteristics of <i>Tuhfetul-Abidin</i>	35

LITERATURE

Elmira Adilbekova The Moral Philosophy of Haci Bektaş Veli: an Ethical Approach in the Anatolian Sufi Tradition	51
Feruza Burkhanova The Concept of the Creative author and Ideological–Artistic Characteristics.....	72
Parviz Izzatillaev Comparison of the Original Text and the Persian Translation: “Majolis un-Nafois” – “Hasht Bihisht”	89
Gulrukh Khudoyorova The Nature of Lyrical Experience.....	110
Turkan Verdiyeva Reflection of the Literary and Cultural Sphere of the XII th Century Ganja in the XX th Century Dramas of Mehdi Huseyn and Kamala Agayeva	127
Leyla Karimova The Journey Alexander of Makedonian the Great to Azerbaijan: its Reflection in History and in Nizami Ganjavi’s imaginative World	140

SOCIOLOGY

Fathulla Abduvaliev The Impact of Globalization Processes on Educational Migration.....	152
---	-----

Asliy matn va forsiy tarjima qiyosi: “Majolis un-nafois” – “Hasht bihisht”

Parviz Izzatillayev¹

Abstrakt

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida turkiy adabiyot tarixida shoirlar hayoti, ijodi hamda XV asr adabiy muhiti haqida eng muhim manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu asar nafaqat o’z davri ijodkorlari haqida batafsil ma’lumot beradi, balki Navoiy tazkira yozish an’anasining shakllanishida ham o’ziga xos o’rin tutadi. “Majolis un-nafois”ning keyingi asrlarda turli muhitlarda ko’chirilishi, forsiyga tarjima qilinishi hamda nashr qilinishi ushbu manbaga bo’lgan katta qiziqishning yorqin dalilidir.

Shu bois “Majolis un-nafois”ning “Toshkent nashri” bilan Qazvinining “Hasht bihisht” asarining “Tehron nashri”ni qiyosiy o’rganish, ulardagi farqlarni aniqlash va bunday tafovutlarning sabablarini tahlil qilish bugungi navoiyshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot aynan ana shu masalaga bag’ishlanib, Qazvinij tomonidan amalga oshirilgan tarjima jarayonidagi o’zgartirishlar xarakteri, ularning tazkira mohiyati va tarixiy-adabiy manba sifatidagi qadr-qimmatiga ta’sirini aniqlashni maqsad qiladi.

Kalit so’zlar: *“Majolis un-nafois”, Qazvinij, “Hasht bihisht”, qo’lyozma, tarjima, matniy tadqiq, Tehron nashri, Toshkent nashri.*

Kirish

Hakimshoh Qazvinij o’z tarjimasi “Hasht bihisht”da² “Majolis un-nafois”³ asarining asl turkiy matnini qanday berilgan bo’lsa shundayligicha tarjima qilmay, unga ko’plab o’zgartirishlar kiritgan, buning natijasida esa asl turkiy matndan ancha uzoqlashgan. Bu kabi o’zgartirishlarga tarjimon tomonidan asl matnda mavjud bo’lgan ayrim qismlarning butunlay tushirilib qoldirilishi, asl matnda mavjud bo’lmagan qo’shimcha ma’lumotlarning tarjimon tomonidan kiritilishi yoki tarjima asnosida tarjimon tomonidan

¹ Izzatillayev Parviz – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: parvizisosoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

Iqtibos uchun: Izzatillayev, P. I. 2025. “Asliy matn va forsiy tarjima qiyosi: “Majolis un-nafois” – “Hasht bihisht”. *O’zbekiston: til va madaniyat* 4: 89 – 109.

² Keyingi o’rinlarda “Tehron nashri” deya tilga olinadi.

³ Keyingi o’rinlarda “Toshkent nashri” deya tilga olinadi.

matn qismlarining nomlari va mazmuniga kiritilgan o'zgartirishlarni sanab o'tmoq joiz. Bu "tushirib qoldirilish", "qo'shimcha kiritish" va "o'zgartirish kiritish"lar ba'zan shoirlarning ismi va ular haqida keltirilgan ma'lumotlarda, ba'zida esa ularning ijodidan keltirilgan misollarda, gohida bir shaxs haqidagi barcha ma'lumotlarda ko'zga tashlanadi.

Asosiy qism

Asl turkiy matnda mavjud bo'lib, ammo Hakimshoh Qazviniy tomonidan "tushirib qoldirilgan" matn qismlari asosan shoirlarning ismi yoxud ular haqidagi ma'lumotlarda, shoirlar qalamiga mansub baytlarda va ularning sharhi holida ko'zga tashlanadi. Qazviniy tomonidan tushirib qoldirilgan asl matnning qismlari birinchi navbatda ayrim shoirlarning ismi, taxallusi va tug'ilgan joyi bilan bog'liqdir. Shuningdek, Qazviniy ba'zan shoirlar ijodidan keltirilgan baytlarni o'z tarjimasida keltirmagan bo'lsa, ba'zida ayrim shoirlarning sharhi holi bilan bog'liq bir qism ma'lumotlarni tarjima qilmasdan tashlab ketadi. Inchunin, Qazviniy tomonidan ba'zi shoirlar haqidagi ma'lumotlarning to'lig'icha tarjima qilinmasdan tashlab ketish holatlari ham uchraydi.

Qazviniy tomonidan asl matnda mavjud bo'lgan ayrim parchalarning tarjimada tashlab ketilishi, uning asl matnga sodiq bo'lmaganidan dalolat beradi. Buni esa uning tarjimasidagi "zaif nuqta" sifatida baholash mumkin.

Shoirlarning ismi va ular to'g'risidagi ma'lumot bilan bog'liq matn qismlarining Qazviniy tarjimasida tashlab ketilishi quyidagilardan iborat:

1) **"Qozi Muhammad** – dar Xuroson az jumlai ilmu fazl ast va base xushtab' va sohibkamol ast va ba mansabi quzzo ishtig'ol menamoyad va gohe she'r niz mefarmoyad va in matla' az o'st:

*Guftamash gul, gul baromad rangi ruxsorat zi mul,
G'unchai o' dar tabassum shud ki az gulho chi gul".*

Mazkur shoir "Majolis un-nafois" asarining asl turkiy matnida *Qozi Muhammad Imom* tarzida keltirilgan bo'lib, u haqda shunday deyiladi:

"Qozi Muhammad Imomiy — mutadayyin va xushtab' kishi erdi. Xurosonning qoziyul-quzotlig' mansabida mutammakkin bo'ldi. Va nazmg'a gohi mashg'ul bo'lur erdi. Ash'ori Hiri shahrida el orasida bor. Bu matla' aningdurkim:

*Guftamash gul-gul baromad rangi ruxsorat zi mul,
G'unchai u dar tabassum shudki, az gulho chi gul.
Va qabri Hiriya Imom Quzotning go'ristonidadur."*

[Navoiy 2013, 298].

Qazviniy tarjima asnosida uning ismiga qo'shib aytiladigan "Imom"lik sifatini keltirmasdan, faqatgina Qozi Muhammad tarzida keltirish bilan cheklangan. Bundan tashqari "Toshkent nashri"da mavjud "*Ash'ori Hiriya shahrida el orasida bor*" jumlasida hamda u dafn etilgan mozar bilan bog'liq ma'lumot ham Qazviniy tarjimasida uchramaydi.

Keyingi "tashlab ketish" shoir – Xoja Fazlulloh Samarqandiy bilan bog'liqdir. U haqda "Tehron nashri"da quyidagicha ma'lumot beriladi:

2) "Xoja Fazlulloh Samarqandiy – o'ro ba vositai kasrati donishi ilmi fiqh Abuhanifai Soniy mego'yand. Va bo on ki a'lam ulamoi Samarqand buda, mayl ba she'ru muammo niz mefarmuda. Va in matla' az o'st:

*Qaddi chun sarvi tu jon ast maro balki ravon,
So'yam, ey sarvi ravon shav, ki fado sozam jon"*

[Amir Alisher Navoiy 1323, 201].

Bu shoir Alisher Navoiyga "farzandim" deya murojaat qilgan o'sha Xoja Fazlulloh Abullaysiy bo'lib, Toshkent nashrida u haqida shunday deyiladi:

"Xoja Fazlulloh Abullaysiy – Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqhda ani Abu Hanifai Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi..

Bovujudkim, Samarqandning a'lam ulamosi erdi, she'r va muammog'a dag'i moyil erdi.

Bu matla' alarningdurkim:

*Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,
So'yam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon"*

[Alisher Navoiy 2013, 309].

Ammo Qazviniy unga berilgan "Abullaysiy" nisbasini keltirmasdan, Xoja Fazlulloh Samarqandiy shaklida berish bilan cheklanganini ko'rishimiz mumkin.

Keyingi shoir bu Mavlono Faseh bo'lib, Tehron nashrida u haqida shunday ma'lumot keltiriladi:

3) "Mavloni Faseh – shaxse tavonost va marde dono va dar donish benazir va behamto va dar xidmati Jo'gi Mirzo mebud va kitobati qasrhoi bog'oti o' she'ri o'st. Va tatabbo'i qasidai masno'i

Salmon karda, va Maxzan ul-asrori Shayx Nizomiro niz javob gufta; In bayt dar bobi nihon doshtani asror az o'st:

*Har nafas k-az tu kase bishnavad,
Beshak az o' hamnafase bishnavad" [Navoiy 1323, 205].*

Bu shoir "Majolis un-nafois" asarining "Toshkent nashri" da Mavlono Fasih Rumiy tarzida quyidagicha keltiriladi:

"Mavloni Fasih Rumiy – donishmand kishi erdi. Jo'gi Mirzo xizmatida bo'lur erdi va aning bog'oti, qasrlarining kitobalari Mavlononing ash'oridur. Xoja Salmonning masnu' qasidasig'a tatabbu' qilibdur. O'z xo'rdi holig'a yomon aytmaydur. Va Hazrat Shayxning "Maxzan ul-asror"ig'a javob aytibdur, bu bayt "rozni nihon asrar" bobida aningdurkim:

*Har nafas k-az tu kase bishnavad,
Beshak az u hamnafase bishnavad" [Navoiy 2013, 314].*

Qazviniy o'z tarjimasida uning ismiga qo'shib aytiladigan "Rumiy" nisbasini qo'shmay, Mavlono Fasih shaklida keltiradi.

Navbatdagi shoir Xoja Burhon bo'lib, Tehron nashrida u to'g'risida shunday ma'lumot keltiriladi:

4) "Xoja Burhon – az farzandoni hazrati shayxulislom Ahmadi Jom ast... Dar in matla' tasnifi "Isfahon" az o'st:

*Rasida mavsumi shodiyu zavqu ayshu tarab,
Agar gado ba murodi dile rasad, chi ajab." [Navoiy 1323, 215].*

Bu shoir "Majolis un-nafois"ning "Tehron nashri" da **Xoja Yusuf Burhon** [Alisher Navoiy 2013, 323] deya tilga olingan bo'lib, Qazviniy tarjimasida "Yusuf" ismini uning nomu nasabida aks ettirmay, faqatgina Xoja Burhon tarzida keltirish bilan cheklangan.

Qazviniy o'zining "Hasht bihisht" tarjima asarida shoirlarning ismi bilan bog'liq yana 92 ta qisqartirish va o'zgartirishni ham amalga oshirgan bo'lib, barchasi haqida atroflicha ma'lumot keltirishning imkoni yo'qligi bois quyidagi jadvalda ularni nommanom keltirish bilan cheklanamiz:

1-jadval

№	Asl turkiy matnda (Toshkent nashri) shoirlarning nomu nasabi	Qazviniy tarjimasida (Tehron nashri) shoirlar ismi bilan bog'liq qisqartirishlar va o'zgartirishlar
1	Mavlono Ashraf (1-majlis, 296-bet)	Mavlono Sharaf (1-bihisht, 187-bet)
2	Xoja Ismatullo (1-majlis, 296-bet)	Xoja Ismat (1-bihisht, 187-bet)
3	Mavlono Yax'yo Sebak (1-majlis, 297-bet)	Mavlono Yahyo Shebak (1-bihisht, 188-bet)
4	Mir Islom G'azzoliy (1-majlis, 297 bet)	Miri Islom (1-bihisht, 189-bet)
5	Mavlono Ruhiy Yoziriy (1-majlis, 299-bet)	Mavlono Ruhiy (1-bihisht, 190-bet)
6	Mavlono Sohib Balxiy (1-majlis, 299-bet)	Mavlono Sohib (1-bihisht, 190-bet)
7	Mavlono Simiy (1-majlis, 300-bet)	Mavlono Simiy Nishoburiy (1-bihisht, 191-bet)
8	Mavlono Ali Ohiy (1-majlis, 300-bet)	Mavlono Ohiy (1-bihisht, 191-bet)
9	Bobo Savdoiy (1-majlis, 301-bet)	Mavlono Savdoiy (1-bihisht, 192-bet)
10	Mavlono Zohidiy (1-majlis, 302-bet)	Mavlon Zohid (1-bihisht, 193-bet)
11	Mavlono Amiriy (1-majlis, 302-bet)	Mavlono Amir (1-bihisht, 193-bet)
12	Mavlono Burundiq (1-majlis, 302-bet)	Mavlono Boyazid (1-bihisht, 193-bet)
13	Mavlono Sulaymoniy (1-majlis, 303–304-betlar)	Mavlono Sulayman (1-bihisht, 194-bet)
14	Mavlono Masihiy (1-majlis, 304-bet)	Mavlono Shayxiy (1-bihisht, 196-bet)
15	Mavlono Muhammad Jomiy (1-majlis, 305-bet)	Mavlono Muhammad (1-bihisht, 197-bet)
16	Mir Shohiy (1-majlis, 306-bet)	Amir Shohiy (1-bihisht, 197-bet)
17	Mir Haydar Majzub (2-majlis, 311-bet)	Mir Sadriddin Majzub (2-bihisht, 202-bet)
18	Mir Yodgorbek (2-majlis, 312-bet)	Mir Yodgor (2-bihisht, 204-bet)
19	Hofiz Ali Jomiy (2-majlis, 315/316-betlar)	Mavlono Ali Jomiy (2-bihisht, 207-bet)
20	Sayid Kamol Kachkul (2-majlis, 316-bet)	Sayyid Kamol Kajka'l (2-bihisht, 207-bet)
21	Mavlono Hoji Nujumiy (2-majlis, 320-bet)	Mavlono Nujumiy (2-bihisht, 212-bet)
22	Mavlono Qanbariy (2-majlis, 320-bet)	Mavlono Qabriy (2-bihisht, 213-bet)
23	Harimiy Qalandar, (2-majlis, 321 bet)	Jarimiy Qalandar (2-bihisht, 214-bet)
24	Mavlono Sa'idiy (2-majlis, 324-bet)	Mavlono Sa'diy (2-bihisht, 216-bet)
25	Mavlono Mir Arg'un (2-majlis, 324-bet)	Mir Arg'un (2-bihisht, 217-bet)
26	Mavlono Muhammad Omiliy (2-majlis, 325-bet)	Mavlono Muhammad Abliy (2-bihisht, 218-bet)
27	Darvesh Nozukiy (2-majlis, 326-bet)	Darvesh Nozuk (2-bihisht, 218-bet)

28	Mavlono Ahmad Mujallid (2-majlis, 327-bet)	Mavlono Muhammad Mujallid (2-bihisht, 219-bet)
29	Mavlono Muhammad Ne'matobodiy (2-majlis, 328-bet)	Mavlono Muhammad (2-bihisht, 220-bet)
30	Mavlono Mir Qarshiy (2-majlis, 328-bet)	Mavlono Qarshiy (2-bihisht, 220-bet)
31	Mavlono Yaqiniy (2-majlis, 332-bet)	Mavlono Naqibiy (2-bihisht, 224-bet)
32	Mavlono Sakkokiy (2-majlis, 333-bet)	Mavlono Sakkoliy (2-bihisht, 225-bet)
33	Nur Saidbek (2-majlis, 334-bet)	Saidbek (2-bihisht, 225-bet)
34	Darveshbek (2-majlis, 336-bet)	Mirzo Aliy (2-bihisht, 227-bet)
35	Hazrat Maxdumiy Shayxu-l-islomiy Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (3-majlis, 338-bet)	Hazrati Shayx-ul islom va nur-ul inom Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy (3-bihisht, 229-bet)
36	Amir Shayxim Suhayliy (3-majlis, 338-bet)	Mir Shayxim Suhayliy (3-bihisht, 230-bet)
37	Mavlono Sayfiy (3-majlis, 339-bet)	Mavlono Sayfiy Buxoriy (3-bihisht, 230-bet)
38	Sayid Qutb Lakadang (3-majlis, 344-bet)	Mavlono Sayid Qutbi Lakadnik (3-bihisht, 237-bet)
39	Mavlono Muqbiliy (3-majlis, 345-bet)	Mavlono Muqimiy (3-bihisht, 237-bet)
40	Mavlono Nargis (3-majlis, 346-bet)	Mavlono Nargisiy (3-bihisht, 238-bet)
41	Mavlono Jamishd (3-majlis, 349-bet)	Mavlono Hamid (3-bihisht, 239-bet)
42	Xoja Muso (3-majlis, 354-bet)	Mavlono Mushiy (3-bihisht, 250-bet)
43	Mavlono Zirakiy (3-majlis, 359-bet)	Mavlono Zirak (3-bihisht, 250-bet)
44	Do'st Muhammad (3-majlis, 360-betlar)	Mavlono Do'st (3-bihisht, 251/252-betlar)
45	Mavlono Asiruddin (3-majlis, 361-bet)	Mavlono Naziruddin (3-bihisht, 252-bet)
46	Mavlono Hamdamiy (3-majlis, 362-bet)	Hamdamiy (3-bihisht, 254-bet)
47	Mavlono Osimiy (3-majlis, 362-bet)	Mavlono Osiy (3-bihisht, 254-bet)
48	Mavlono Sifotiy (3-majlis, 358-bet)	Mavlono Safoiyi (3-bihisht, 255-bet)
49	Mavlono Fazliy (3-majlis, 364-bet)	Mavlono Fayziy (3-bihisht, 256-bet)
50	Mavlono Zohiriy (3-majlis, 365-bet)	Mavlono Tohiriy (3-bihisht, 257-bet)
51	Zova Qozisi (3-majlis, 367-bet)	Qozizoda (3-bihisht, 258-bet)
52	Mavlono Doiy (3-majlis, 370-bet)	Mavlono Domiy (3-bihisht, 260-bet)
53	Mavlono Hamidgul (3-majlis, 371-bet)	Mavlono Hamid (3-bihisht, 260-bet)
54	Mavlono Volahiy (3-majlis, 372-bet)	Volahiy (3-bihisht, 262-bet)
55	Mir Sarbarahna (4-majlis, 374-bet)	Said Sarbarahna (4-bihisht, 265-bet)

56	Mavlonο Burhonuddin (4-majlis, 375-bet)	Mavlonο Burhon (4-bihisht, 265-bet)
57	Mavlonο Husayn Voiz (4-majlis, 378-bet)	Mavlonο Voiz (4-bihisht, 268/269-betlar)
58	Mirond (4-majlis, 379-bet)	Mavlonο Mirxond (4-bihisht, 379-bet)
59	Mir Ixtiyoruddin (4-majlis, 380-bet)	Sayyid Ixtiyor (4-bihisht, 271-bet)
60	Mir Sayyid Husayn Abivardiy (4-majlis, 382-bet)	Sayyid Husayn Bovardiy (4-bihisht, 273-bet)
61	Mirak Husayn (4-majlis, 386-bet)	Mavlonο Mirak Husayn (4-bihisht, 276-bet)
62	Sufiy Piri Sesadsola (4-majlis, 388-bet)	Piri Sufiy-Piri Sadsola (4-bihisht, 274-bet)
63	Xoja Abu Nasr (4-majlis, 392-bet)	Xoja Abu Nasr Mehna (4-bihisht, 279-bet)
64	Xoja Husayn Kirangiy (4-majlis, 393-bet)	Hoja Hasan Kirangiy (4-bihisht, 279-bet)
65	Mavlonο Muhammad Xurosoniy (4-majlis, 394-bet)	Mullo Muhammad Xurosoniy (4-bihisht, 280-bet)
66	Xoja Abdulloh Sadr (4-majlis, 394-bet)	Xoja Abdulloh (4-bihisht, 281-bet)
67	Amir Davlatshoh (5-majlis, 396-bet)	Amir Davlatshoh bin Firo'zshoh (5-bihisht, 282-bet)
68	Mir Husayn Ali Jaloyir (5-majlis, 397-bet)	Amir Hasan Jaloyir (5-bihisht, 282-bet)
69	Abdulvahhob (5-majlis, 397-bet)	Mir Abdulvahhob (5-bihisht, 283-bet)
70	Sulton Husayn (5-majlis, 398-bet)	Mir Sulton Husayn (5-bihisht, 283-bet)
71	Muhammad Solih (5-majlis, 398-bet)	Mir Muhammad Soleh (5-bihisht, 283-bet)
72	Ibrohim Muhammad Xalil (5-majlis, 400-bet)	Ibrohim Xalil (5-bihisht, 284-bet)
73	Soqiy (5-majlis, 401-bet)	Malik Soqibek (5-bihisht, 283-bet)
74	Xoja Xurd (6-majlis, 403-bet)	Xoja Xusrav (6-bihisht, 286-bet)
75	Abulbaraka (6-majlis, 403-bet)	Qozi Abulbaraka (6-bihisht, 286-bet)
76	Xoja Xovand (6-majlis, 404-bet)	Xoja Fazlulloh (6-bihisht, 287-bet)
77	Amir Mahmud Barlos (6-majlis, 404-bet)	Mir Mahmud Parlos (6-bihisht, 287-bet)
78	Darvesh Shuhudiy (6-majlis, 404-bet)	Mavlonο Foniy (6-bihisht, 288-bet)
79	Mavlonο Mo'miniy (6-majlis, 404-bet)	Mavlonο Mo'mini Samarqandiy (6-bihisht, 288-bet)
80	Orif Farkatiy (6-majlis, 405-bet)	Mavlonο Orif (6-bihisht, 288-bet)
81	Mavlonο Xayriy (6-majlis, 405-bet)	Mavlonο Sabriy (6-bihisht, 289-bet)
82	Mavlonο Solihiy (6-majlis, 406-bet)	Mavlonο Soleh (6-bihisht, 290-bet)
83	Mavlonο Darvesh Dehakiy (6-majlis, 406-bet)	Darvesh Dehakiy (6-bihisht, 290-bet)

84	Shayx Najm (6-majlis, 407-bet)	Shayx Najmiddin (6-bihisht, 295-bet)
85	Mavlono Bayzoiy (6-majlis, 410-bet)	Mavlono Bayoziy (6-bihisht, 312-bet)
86	Sayyid Imod (6-majlis, 410-bet)	Sayyid Imoduddin (6-bihisht, 312-bet)
87	Ulug'bek Mirzo (7-majlis, 413-bet)	Mirzo Ulug'bek (7-bihisht, 314-bet)
88	Abdullatif Mirzo (7-majlis, 414-bet)	Mirzo Abdullatif (7-bihisht, 315-bet)
89	Saydi Ahmad Mirzo (7-majlis, 414-bet)	Sayyid Ahmad Mirzo (7-bihisht, 315-bet)
90	Kichik Mirzo (7-majlis, 415-bet)	Mirzo Kijik (7-bihisht, 315-bet)
91	Sulton Badiuzzamon Mirzo (7-majlis, 415-bet)	Sulton Badiuzzamon (7-bihisht, 315-bet)
92	Xoja Abulvafoi Xorazmiy (1-majlis, 4-bet)	Xoja Abulvafo (1-bihisht, 185-bet)

“Majolis un-nafois” tazkirasida shoirlar ijodidan keltirilgan ayrim baytlar Qazvinining tarjima asari “Hasht bihisht” asaridan o‘rin olmay qolgan. Ijod namunalari tarjimadan tushib qolgan shoirlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) **“Mavlono Amir.** *Turkast va she’ri o’ turkist va bo vujudi on ki dar g’oyati xubist, mashhur nest va dar she’ri forsi tatabbo’i Shayx Kamol namuda. In matlai purhol az o’st:*

*Ro’zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,
G’ayri zohid k-o’ riyozatho kashidu xushk mond”* [Amir Alisher Navoiy 1323, 193].

“Majolis un-nafois”ning Toshkent nashrida bundan tashqari yana bir bayt keltirilgan bo‘lib, Qazvinij tarjima jarayonida bu baytni keltirmasdan birdan keyingi shoir haqidagi ma’lumot tarjimasini keltiradi. Asl turkiy matnda mazkur shoir va uning baytlari quyidagicha keltirilgan:

“Mavlono Amiriy — *turk erdi va turkcha she’ri yaxshi voqe’ bo’lubdur, ammo shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning “Dahnoma” sidindur:*

*Ne yemakdin, ne uyqudin solib so’z,
Yemakdin to’yub uyqudin yumub ko’z.*

Va forsiyda shayx Kamol tatabbu’i qilibdur. Bu matla’ aningdurkim:

*Ro’zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,
G’ayri zohid k-o’ riyozatho kashidu xushk mond”* [Navoiy 2013,

Ko'rib turganimizdek, Tehron nashrida Toshkent nashrida mavjud turkiy bayt keltirilmasdan, forscha bayt bilan cheklangan. Qazviniyning bunday yo'l tutishida, ehtimol, forsiy o'quvchi shoirning turkiy baytini tushuna olmaydi degan o'y sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

Toshkent nashrida mavjud bo'lib, tarjima jarayonida Qazviniy tomonidan tarjima asarga kiritilmay qolib ketgan keyingi bayt muallifi – Mavlono Qudsiydir. Mazkur shoir haqida Tehron nashrida quyidagicha ma'lumot keltiriladi:

2) "Mavlono Qudsiy – Hiraviy ast. Va kase shiringuftor va shirinkirdor ast, va marazi laqva dorad, va az in jihat obi bisyor beixtiyor az dahoni o' ravn ast, va qatra-qatra az on chakon, va dar in bob in bayt gufta:

*Bo vujudi chunin dahan, ki marost,
She'r go'yam, ki ob az on bichakad"* [Navoiy 1323, 190].

"Majolis un-nafois" tazkirasining Toshkent nashrida bundan boshqa yana bir bayt keltirilgan bo'lib, Qazviniy tarjima jarayonida bu baytni keltirmasdan birdan keyingi shoir haqidagi ma'lumot tarjimasini beradi. Asl turkiy matnda mazkur shoir va uning baytlari quyidagicha keltiriladi:

"Mavlono Qudsiy — hiriylidur, shiringo'y kishi ermish. Va og'zida laqva marazi bor erdi, andoqkim og'zidin suv borur erdi va zabt qila olmas erdi, bu bobda debdurkim:

*Bu vujudi chunin dahanki, marost,
She'r go'yamki, ob az u bichakad.
Bu matla' dag'i aningdurkim:
Ey, ki man'am mekuni az didani on gul'uzor,
Holati dilro namedoni, maro ma'zur dor"* [Navoiy 2013, 299].

"Toshkent nashri"da mavjud bo'lib, tarjima jarayonida Qazviniy tomonidan tarjima asarga kiritilmay qolib ketgan keyingi bayt muallifi – Mavlono Qadimiydir. Mazkur shoir haqida Tehron nashrida quyidagicha ma'lumot keltiriladi:

3) "Mavlono Qadimiy – ba naqorachigari mashhur ast va ba nazmi neko' ma'ruf. Va in matlai xub az o'st. Matla':

*Be jamolash didai ravshan chi kor oyad maro,
Ravshani dar dida az didori yor oyad maro"* [Amir Alisher Navoiy 1323, 195 – 196].

"Majolis un-nafois"ning Toshkent nashrida bundan boshqa yana bir bayt keltirilgan bo'lib, Qazviniy tarjima jarayonida bu baytni

keltirmasdan birdan keyingi shoir haqidagi ma'lumotni keltiradi. Asl turkiy matnda mazkur shoir va uning baytlari quyidagicha keltiriladi:

“Mavlono Qadimiy – naqorachilikka mashhurdir, ammo tab’i nazmlarda muloyim erdi, bu matla’ aningdurkim:

*Be jamolash didai ravshan chi kor oyad maro,
Ravshani dar dida az didori yor oyad maro.
So’ngg’i bayti yaxshiroq voqe’ bo’lubdur:
Oh az on soat, ki nogah dar rahe pesh oyadam,
Muddate boyad, ki to dil barqaror oyad maro”*

[Alisher Navoiy 2013, 304].

“Tehron nashri”da Mavlono Muhammad Arab to’g’risida quyidagi ma'lumot keltiriladi:

4) “Mavlono Muhammad Arab – *marde donishmand bud, valekin dimog’ash az kasarati fikrat dar ulum muxabbat gashta bud va az in jihat doim havo saltanat dar sar dosht va hamisha hamt bar tahsil va takmili asbobi on megumosht va anvo’i asliha dar xonai o’ hozir mebud... Ey baso orzu, ki xok shuda. Va in matla’ az o’st:*

*Xatti sabzat hamagi moyai dilshodii most,
In xati sabz magar nomai ozodii most?”* [Navoiy 1323, 203].

“Majolis un-nafois”ning “Toshkent nashrida” yuqorida keltirilgan baytning o’rnida boshqa bir bayt keltirilgan:

“Mavlono Muhammad Arab – *ul ham donishmand kishi erdi. Dimog’i xabt qildi va xayoli Mir Haydar xayoli borg’on sori bordi. Doim saltanat so’zini mazkur qilur erdi, to ulkim chin yo yolg’on Mavlononi munga muttaham qildilarkim, uyidin xuruj aslahasi paydo bo’lubtur deb, chun aziz va musin kishi erdi, podshohi zamon anga shahardin ixroj hukmi buyurdi. Ul erdin Siyistong’a bordi va so’zi ham ushbu rang erdi, o’zining podshohlig’i qoidasida “Shohnoma” aytibdur. Bu bayt ul abyotdindurkim:*

*Kase mahrami shah ba juz shoh nest,
Zi ahvoli shah juz shah ogoh nest.
Mazori Siyistonda – o’qdur.”* [Navoiy 2013, 311].

“Tehron nashri”da Mavlono Tabriziy to’g’risida quyidagicha ma'lumot keltiriladi:

5) “Mavlono Musayyab – *o’ niz masti bodai g’urur va zulm va ta’addi buda, va ba havo vazorat va kifoyati podshoh mardumro zahmat medoda. Va rahmat bar Ibodulloh namekarda va ba muqtazoi “man a’ana zoliman sallatahullohu ‘alayhi” siyosati podshoh bar*

o' musallat gasht va ba on gashta-gashta, va qabri o' dar xonai o'st
[Navoiy 1323, 266].

Qazviniy tarjima asar "Hasht bihisht"da "Majolis un-nafois"da mazkur shoir qalamiga oid bir baytni keltirmaydi. Mazkur shoir haqida "Toshkent nashri"da quyidagicha ma'lumot beriladi:

"Xoja Musayyab – *andin ajabroq kishi erdi. Ul dag'i vazorat bexudlig'idin musulmonlarg'a ajab zulmlar qilurg'a bel bog'lab erdikim, qazo devonidin bevosita siyosatqa mustavjib bo'lub va el aning sharridin xalos bo'ldilar.*

*Qabri ham o'z viloyatidadur. Bu matla' aningdurkim:
Guzasht umru zi g'aflat man on chunon mastam,
Ki, hech tavba nakardamki, boz nashkastam"*

[Navoiy 2013, 334].

6) "Mavlono Ziyo Tabriziy – *marde xushxulq va shirinkor va kamozor bud. Va hamai harakat va sakinoti u bisyor maqbul menamud va jahti tahsil ulum ba Hiriy omada bud va dar asnoi tahsil ilmi she'r niz meguft. Va in matla' az o'st:*

*Ajab nabvad agar parvona imshab tarki jon karda,
Ki binad naxl umri sham' bunyodi xazon karda"*

[Navoiy 1323, 237 – 238].

"Toshkent nashri"da mazkur baytdan tashqari yana bir bayt keltirilgan bo'lib, Qazviniy o'z tarjimasida ikkinchi baytni keltirmasdan qoldirib ketadi:

"Mavlono Ziyo – *tabrizlikdur. Ko'ngulga yaqin shirinadoliq maqbulg'ina kishidur. Haqir ul-jussa uchun ashobqa mujibi bast ham bo'lur. Shahrg'a tahsil uchun keldi. Tahsil asnosida she'rga ham ishtig'ol ko'rguzdi, dag'i yaxshigina she'rlar ham aytti. Bu matla' aningdurkim:*

*Ajab nabvad agar parvona imshab tarki jon karda -
Ki, binad naxli umri sham' bunyodi xazon karda.
Bu matla' ham xub voqe' bo'lubtur.*

*Xush on soatki, oyad turki man shamsheri kin bo u,
Raqibon jumla bigrezandu man monam hamin bo u"*

[Navoiy 2013, 345].

7) Qazviniy Abdurahmon Jomiy to'g'risidagi ma'lumotlarni tarjima qilib bo'lganidan so'ng o'zi mustaqil ravishda shoir ijodidan qo'shimcha ravishda 14 misra she'r keltirib, aynan "Majolis un-nafois"da keltirilgan bir baytni o'z tarjimasida keltirmaydi. "Majolis un-nafois" asarining "Toshkent nashri"da keltirilgan o'sha bir bayt

quyidagicha:

*“Rahravoni borkashro sahl don oshomi qahr,
Dar dahoni noqa xori xushk xurmoi tar ast”*

[Navoiy 2013, 338].

8) “Mavlono Nizom – Astrobodi ast va qasidai neko’ megufta, va dar “Bahoriya” in matla’ az o’st:

*Naxoham peshi mardum dida bar didori yor aftad,
Chu pesh oyad nazar bar ro’yi o’ beixtiyor aftad”*

[Navoiy 1323, 260].

Qazviniy Mavlono Nizom haqida ma’lumot berib, undan “Majolis un-nafois” asarida mavjud baytni emas, balki boshqa bir baytni misol tariqasida keltiradi. “Majolis un-nafois”da keltirilgan bayt esa quyidagicha:

“Mavlono Nizom – astrobodlig’dur. Qasidani yaxshi aytur va bu “Bahoriya” qasidasi yaxshi voqe’ bo’lubturkim:

*Boz gulzori xat az sabzai tar paydo kard,
Kori bo’stoni jahon rangi digar paydo kard”*

[Navoiy 2013, 370].

Qazviniy shoirlar to’g’risidagi ma’lumotlarni tarjima qilish jarayonida ayrim shoirlar bilan bog’liq ma’lumotlarning bir qismini tarjimasida keltirmay qoldirib ketgan holatlar ham uchraydi. Jumladan, **Shayx Ozariy** haqida asl turkiy matnda mavjud bo’lib, Qazviniy o’z tarjimasida keltirmagan matn qismlari quyidagilardir:

1) “... Gulbarga podshohi Shayxqa bir lak yarmoq taklif qildi, ammo o’z rasmlari birla bosh yerga qo’ymoq, taklifi ham ko’rguzdi.

... va ba’zi kutub, misli “Ajoyib ud-dunyo” va “Javohir ul-asror” Shayxningdur. O’zga musannafoti ham bordur” [Navoiy 2013, 294].

Shuningdek, Qazviniy **Mavlono Ashraf** to’g’risidagi ma’lumotning asl nusxada mavjud quyidagi qismlarini ham tarjima qilmagan:

2) “... Va kiyiz bo’rk ustiga qurchuq chirmar erdi. Va el bila dag’i omizishi oz erdi” [Navoiy 2013, 296].

Qazviniy tarjima asar “Hasht bihishtda” asl turkiy matn – “Majolis un-nafois”da mavjud bo’lib, lekin u tarjima qilmasdan qoldirib ketgan **Mavlono Yahyo Sebak** bilan bog’liq quyidagi ma’lumotni ham qayd etib o’tish joiz:

3) “Mavlono Yahyo Sebak: Bu faqir aruz fanida vosita bila Mavlononing shogirdimen. Inshoollohkim, o’z yerida kelgay. Mavlono darveshvasht va qone’ kishi erdi. Go’shaye ixtiyor qilg’on jihatidin

latoyifi tab'i ozroq shuhrat tutti. Sana isno va xamsina va samona miada olamdin o'tdi" [Navoiy 2013, 297].

Bularga qo'shimcha ravishda quyidagi shoirlar bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni ham Qazviniy o'z tarjimasida keltirmasdan qoldirib ketadi:

4) Mavlono Burundiq:

"...ul zamon shuarosi aning tilidin qo'rqub, aning jonibini ko'p rioyat qilur ermishlar va ani ustod lafzi bila xitob qilur ermishlar" [Navoiy 2013, 302].

5) Mir Shohiy:

"... Asli sarbadorlardin bo'lur. ... Farog'atdo'st va xushbosh kishi erdi. ... G'azali agarchi ozdur, ammo barcha xaloyiq qoshida pisandida va mustahsandur. Faqir agarchi ani ko'rmadim, ammo aning bila faqirni orasida e'lom va irsol voqe' bo'ldi. ... Astrabodda aytqon ikki matlai tuganmay qolg'on erdikim, vasiyat qilg'ondurkim, Xoja Avhad alarni tugatsun deb, biri budurkim.. ... Xoja Avhad ikkalasin tugatti va devonig'a bitildi va shahr shuarosig'a marsiya taklifi qildikim, ayttilar. Bu bir bayt ul marsiya ab'yotidindurkim..." [Navoiy 2013, 306].

6) Xoja Avhad Mustavfiy:

"... O'z asrining yagonasi erdi. Bu faqir ul buzrukvor suhbatig'a yetar erdi, ko'p iltifotlari bor erdi. Va she'rda dag'i devon tartib qilibdur, yaxshi qasoyidlari bor" [Navoiy 2013, 308].

Shuningdek, Qazviniy o'z tarjimasida qo'shimcha ravishda shoirning Sherozga borganligini va o'sha yerda olamdan o'tganligini yozadi: *"Va Xoja dar Sheroz mebuda, va ham az onjo rihlat ba oxirat farmuda"* [Navoiy 1323, 201].

Ammo "Majolis un-nafois"da uning Sabzavorda bo'lganligi va o'sha yerda olamdan o'tganligi va qabri ham o'sha joyda ekanligi haqida yozilgan: *"Va Xoja Sabzavorda sokin erdi ham anda-o'q olamdan o'tdi va qabri o'zi bo'lur maskanida-o'qdur"* [Alisher Navoiy 2013, 309].

7) Mir Muflisiy:

"Mashhad sodotidindur. ...Ilkiga va barmoqlariga halqalar solur erdi. Doyim o'z-o'zi birla so'zlashur erdi. Hushi borida yaxshi abyotlar aytib edi" [Navoiy 2013, 312].

Qazviniy uning qabri Mashhadda ekanligini yozadi: *"Va qabri o' dar Mashhad ast* [Navoiy 1323, 203]. " Ammo "Majolis un-nafois"ning asl matnida uning qabri qayerda ekanligi to'g'risida batafsilroq ma'lumot berilgan: *"Va qabri Mashhadda Xoja Xizr langaridadur"* [Navoiy 2013, 312].

8) Mir Sarbarahna:

“... G’oyat sho’x tab’lig’idin tirziq aytmoq qoidasin Mir paydo qildi. Bovujudi bu goh-goh yaxshi tirziqlar ham navish qilurlar va yigitlikda Oqil kungurga mutaallaq bo’lub, ofiyat tariyqin tark qilib, ul toifag’a tobe’ bo’lub erishib yururda aning pesh saloti g’oyib bo’lg’onda, Mir ma’rakada pesh saloti bo’lub aytqon abyotdin bu ruboiydurkim...”

... Mir ul viloyatning vojib ul-ehtiom sodotidindur, agarchi arzol va xubaso musallam tutmaslar va nimagina derlar, ammo ul toyifaning so’ziga e’tibor yo’qtur. Va Mirning mufrit taom yemakka ko’p shaafllari bor. Ul jihatdin ko’proq avqot imtilo marazig’a giriftordurlar” [Navoiy 2013, 374 – 375].

9) Mir Husayn Ali Jaloyir:

“...Ali Jaloyirning o’g’lidurkim, otasi Yodgor Mirzo eshigida amir ul-umaro va sohib ixtiyor erdi. Ammo o’zining otasig’a nisbati yo’qtur.

... Ul hazrat ham ani yaxshi tarbiyatlar qildilar. Andoqkim, viloyat bildi va qo’sh devonida muhr bosti va parvonachi bo’ldi va taqarrub va nayobatqa daxli bor erdi.

Falakning andinkim, fazl ahlig’a hasadi bor, bir taqdir bila oni dargohi falak ishtibohdin yiroq solibdur, aning xud bu qayg’udan kunduz qarori va kecha uyqusi yo’qtur. Umid ulkim, podshohona lutf va karam dastgiri bo’lg’ay” [Navoiy 2013, 397].

10) Muhammad Solih:

“... ko’p vaqtlar Chahorjo’y navohisidin Adoq navohisig’a degicha amorat qildi va ... Ulug’bek va Jo’gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlat ul-mulk erdi. Ammo bag’oyat badfe’l va badxulq kishi erdi. O’zi muloyim yigitdur. Atvorining otasi atvorig’a nisbati yo’qtur. Anga ham g’arib sahv tushtikim, Sulton Sohibqiron qullug’idin g’aybat ixtiyor qildi.

Ba’zi derlarkim, bexudlig’ olamida yomon musohiblar ani bu yomon yo’lg’a tutubturlar. Tab’ida xeyli diqqat birla choshni bor. Xatqa ham qobiliyati ko’pdur” [Navoiy 2013, 398].

Qazvinij tarjima asnosida yuqorida tilga olingan kamchiliklardan tashqari, “Majolis un-nafois”da keltirilgan ayrim shoirlarni o’z tarjimasida keltirmasdan ketadi. Jumladan, “Majolis un-nafois”da shoirlar Mavlono Ali Ohiy va Mavlono Tole’iy orasida “Mavlono Ali Shihob” va “Mavlono Ali Shug’oniy” ismli ikki shoir haqida ham ma’lumot keltirilgan [Navoiy 2013, 300 – 301]. Ammo Qazvinijning “Hasht bihisht” asarida Mavlono Ali Ohiydan keyin Mavlono Tole’iy haqida ma’lumot keltirilgan, ya’ni Qazvinij ikki shoir – “Mavlono Ali Shihob” va “Mavlono Ali Shug’oniy”lar to’g’risidagi

matnni umuman tarjima qilmay qoldirib ketadi [Amir Alisher Navoiy 1323, 191]. Shuningdek, Qazviniy "Hasht bihisht" tarjima asarining 1-bihishtida, "Majolis un-nafois" asarining 1-majlis oxirida Mir Shohiydan so'ngra Mavlono Mushtariy, Mavlono Ali Darzdo'z, Mavlono Tole'iy va Mavlono Muhyilar haqida ma'lumot berilganiga qaramay [Navoiy 2013, 306 – 307], uni tarjima qilmasdan, 1-bihishtni Mir Shohiy to'g'risidagi ma'lumot bilan yakunlaydi. Bundan tashqari, Navoiy tomonidan birinchi majlis so'ngida "**Majolis un-nafois**"ning avvalgi majlisining itmomi" [o'sha joyda] tarzida keltirilgan qismni ham tarjima qilmay tashlab ketadi.

Ikkinchi bihishtda esa Qazviniy – Mavlono Zayniy, Mavlono Burujiy, Mavlono Safoiy, Mavlono Muqimiy va Mavlono Bilol to'g'risida asarning asl matnida ma'lumot berilganiga qaramay ularni o'z tarjimasida keltirmaydi. Shuningdek, ikkinchi majlis oxiridagi "**Ikkinchi majlis ixtimomi**" [Navoiy 2013, 377] tarzida berilgan asar qismini ham tarjima qilmasdan tashlab ketadi.

"Majolis un-nafois"ning uchinchi majlisida keltirilib, ammo tarjima asar "Hasht bihisht"ning uchinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar 55 tani tashkil qiladi:

2-jadval

No	Muallif nomi	"Majolis un-nafois"dagi majlis o'рни va sahifasi
1	Mavlono Muzhir	3-m, 342-b.
2	Darvesh Xusomiy	3-m, 345-b.
3	Mavlono Salomiy	3-m, 348-b.
4	Mavlono Forig'iy	3-m, 348-b.
5	Mavlono Shihob	3-m, 349-b.
6	Mavlono Abdulhaq	3-m, 349-b.
7	Mavlono Abu Tohir	3-m, 351-b.
8	Sayyid Naqibiy	3-m, 351-b.
9	Mavlono Hajriy	3-m, 352-b.
10	Mavlono Mashrabiy	3-m, 354-b.
11	Mavlono Vafoiy	3-m, 354-b.
12	Mavlono Habib	3-m, 354-b.
13	Mavlono Harimiy	3-m, 354-b.
14	Mavlono Qalandar	3-m, 354-b.
15	Mavlono Qironiy	3-m, 354-b.
16	Mavlono Shodiy	3-m, 354/355-b.
17	Mavlono Xalil	3-m, 355-b.
18	Mavlono Haybatiy	3-m, 355-b.
19	Mavlono Fanoiy	3-m, 355-b.
20	Mavlono Qanbariy	3-m, 355-b.

21	Sayyid Orif	3-m, 355-b.
22	Lutfiyi Soniy	3-m, 355-b.
23	Mavloni Adimiy	3-m, 355-b.
24	Mavloni Shabobiy	3-m, 355/356-b.
25	Mavloni Darvesh	3-m, 356-b.
26	Mavloni Ayoni	3-m, 356-b.
27	Mavloni G'iyosiddin	3-m, 356-b.
28	Sayyid Abdulatif	3-m, 356-b.
29	Mavloni Muhammad	3-m, 356-b.
30	Mavloni Faxriy	3-m, 357-b.
31	Mavloni Rukniy	3-m, 357-b.
32	Mavloni Nosihiy	3-m, 357-b.
33	Mavloni Toyiriy	3-m, 357-b.
34	Sayyid Haziniy	3-m, 357-b.
35	Mavloni Mahdiy	3-m, 358-b.
36	Mavloni Toyifiy	3-m, 358-b.
37	Mir Lavand	3-m, 358-b.
38	Mavloni Shayxiy	3-m, 363-b.
39	Mavloni Hirotiy	3-m, 363-b.
40	Mavloni Nargisiy	3-m, 364-b.
41	Mir Asadulloh	3-m, 365-b.
42	Mir Ahadulloh	3-m, 365-b.
43	Mavloni Shoh Ali	3-m, 365/366-b.
44	Mavloni Husayn	3-m, 367-b.
45	Mavloni Koshiy	3-m, 367-bet.
46	Mavloni Zoyiriy	3-m, 367-b.
47	Mavloni Qone'iy	3-m, 367/368-b.
48	Mavloni Ziyoiy	3-m, 368-b.
49	Mavloni Nuriy	3-m, 368-b.
50	Mavloni Fayziy	3-m, 368-b.
51	Mavloni Ayniy	3-m, 368-b.
52	Mavloni Mu'iniy	3-m, 368-b.
53	Mavloni Xizriy	3-m, 368-b.
54	Ustod Muhammad O'bahiy	3-m, 368/369-b.
55	Mavloni Yoriy	3-m, 370-b.

Bundan tashqari, “Majolis un-nafois”ning uchinchi majlisi so'ngida **“Uchinchi majlisning xatmi”** [Navoiy 2013, 373] nomi bilan keltirilgan qism ham Qazviniy tomonidan tarjima qilinmagan va “Hasht bihish”ga kiritilmasdan qolib ketgan.

“Majolis un-nafois”ning to'rtinchi majlisida keltirilib, ammo tarjima asar “Hasht bihisht”ning uchinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar 21 tani tashkil qiladi va ular quyidagilardir:

3-jadval

Nº	Muallif nomi	"Majolis un-nafois"dagi majlis o'rne va sahifasi
1	Mavlono G'iyosuddin Aziz	4-m, 375/376-b.
2	Xoja Kamoluddin Udiy	4-m, 376/377-b.
3	Ali Karmol	4-m, 377-b.
4	Sulton Ibrohim Musha'sha'	4-m, 379-b.
5	Mavlono Xondamir	4-m, 379-b.
6	Mavlono Hoji Muhammad	4-m, 381-b.
7	Hofiz Muhammad Sultonshoh	4-m, 382-b.
8	Mavlono Faxriy	4-m, 382-b.
9	Sayyid Asadulloh	4-m, 383-b.
10	Mavlono Qosim	4-m, 383/384-b.
11	Mavlono Ali	4-m, 384-b.
12	Mavlono Shihob	4-m, 384-b.
13	Mavlono Sharifi Bohi Shahriy	4-m, 388-b.
14	Mavlon Shoh Ali	4-m, 388-b.
15	Mavlono Bahlul	4-m, 388-b.
16	Pahlavon Darvesh Muhammad	4-m, 391-b.
17	Muhammad Ali	4-m, 391-b.
18	Pahlavon Sulton Ali Go'shtigir	4-m, 391-b.
19	Xoja Qutbiddin	4-m, 393-b.
20	Xoja Yusuf Mehna	4-m, 393-b.
21	Xoja Yahyo	4-m, 395-b.

Shuningdek, "Majolis un-nafois"ning to'rtinchi majlisi so'ngida "**To'rtinchi majlis oxiri**" [Navoiy 2013, 396] nomi bilan keltirilgan qism ham Qazviniiy tomonidan tarjima qilinmagan va "Hasht bihisht"ga kiritilmasdan qolib ketgan.

"Majolis un-nafois"ning beshinchi majlisida keltirilib, ammo tarjima asar "Hasht bihisht"ning beshinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar 3 nafar – Mir Ibrohim [Navoiy 2013, 398], Sheram [Navoiy 2013, 399] va Bek Malakiylardir [Navoiy 2013, 401].

Shuningdek, "Majolis un-nafois"ning beshinchi majlisi so'ngida "**Beshinchi majlisning g'oyati**" [Navoiy 2013, 402] nomi bilan keltirilgan qism ham Qazviniiy tomonidan tarjima qilinmagan va "Hasht bihisht"ga kiritilmasdan qolib ketgan.

"Majolis un-nafois"ning oltinchi majlisida keltirilib, ammo tarjima asar "Hasht bihisht"ning oltinchi bihishtida keltirilmagan

shoirlar 3 nafar – Adhami Ibrohim [Navoiy 2013, 398], Xoja Alouddin [Navoiy 2013, 399] va Mavlono Ahliylardir [Navoiy 2013, 401].

Inchunin, “Majolis un-nafois”ning oltinchi majlisi so‘ngida **“Oltinchi majlisning nihoyati”** [Navoiy 2013, 410] nomi bilan keltirilgan qism ham Qazviniiy tomonidan tarjima qilinmagan va “Hasht bihisht”ga kiritilmasdan qolib ketgan.

“Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisida keltirilib, ammo tarjima asar “Hasht bihisht”ning yettinchi bihishtida keltirilmagan shoirlar esa 12 tani tashkil qiladi va ular quyidagilar:

4-jadval

No	Muallif nomi	“Majolis un-nafois”dagi majlis o‘rni va sahifasi
1	Abubark Mirzo	7-m, 412-b.
2	Sulton Iskandar Sheroziy	7-m, 412-b.
3	Xalil Sulton	7-m, 413-b.
4	Jahonshoh Mirzo	7-m, 414-b.
5	Ya‘qub Mirzo	7-m, 414-b.
6	Boyqaro Mirzo	7-m, 415-b.
7	Shoh G‘arib Mirzo	7-m, 416-b.
8	Faridun Husayn Mirzo	7-m, 416/417-b.
9	Muhammad Husayn Mirzo	7-m, 417-b.
10	Boysung‘ur Mirzo	7-m, 417-b.
11	Sulton Mas‘ud Mirzo	7-m, 417-b.
12	Sulton Ali Mirzo	7-m, 417-b.

Bundan tashqari, “Majolis un-nafois”ning yettinchi majlisi so‘ngida **“Yettinchi majlisning tuganchisi”** [Navoiy 2013, 417 – 418] nomi bilan keltirilgan qism ham H. Qazviniiy tomonidan tarjima qilinmagan va “Hasht bihisht”ga kiritilmasdan qolib ketgan. Qazviniiy “Hasht bihisht”da “Majolis un-nafois”ning so‘nggi sakkizinchi majlisida keltirilgan Husayn Boyqaro to‘g‘risidagi ma‘lumotni qisqartirishlar bilan fors tiliga o‘girib, uni yettinchi majlis oxiriga qo‘shib qo‘yadi va shu bilan yettinchi majlis o‘z nihoyasiga etadi.

Xulosa

“Majolis un-nafois”ning turkiy matni bilan Hakimshoh Qazviniiy tomonidan fors tiliga qilingan “Hasht bihisht” tarjimasi o‘rtasidagi qiyosiy tahlil, tarjima jarayonida juda ko‘p matniy siljishlar, qisqartirishlar, qo‘shimchalar va mazmuniiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganini ko‘rsatadi. Qazviniiy ayrim shoirlarning nomi, nisba va hayotiga doir muhim ma‘lumotlarni to‘liq bermagan, ko‘plab baytlarni tarjimaga kiritmay qoldirgan, ba‘zan esa asl matnda mavjud

bo'lmagan ma'lumotlarni o'zi qo'shgan. Bu holat, bir tomondan, tarjimonning o'z davri o'quvchilarining didi va ehtiyojidan kelib chiqib qilgan ongli tanlovini ko'rsatsa, boshqa tomondan, "Majolis un-nafois"ning tarixiy-adabiy manba sifatidagi mukammalligi va ishonchligini tiklashda matniy-tarixiy tadqiqotlarga ehtiyoj kuchli ekanini namoyon etadi. Tahlildan ma'lum bo'ladiki, Qazviniy tarjimasi to'liq ilmiy tarjima emas, balki muallifning shaxsiy didi, zamon talabi va forsiy adabiy muhitga moslashtirish tamoyillari asosida qayta ishlangan matndir. Shuning uchun "Majolis un-nafois"ning asl mazmuni, shoirlar haqidagi ma'lumotlar va adabiy-nazariy tasavvurlarni haqqoniy tiklashda asosiy manba sifatida turkiy matnning o'zi ustuvor o'rin tutadi. Qiyosiy tadqiqot esa Navoiyning tazkiranavislikdagi o'rni, forsiy va turkiy matnlar o'rtasidagi tafovutlar hamda tarjima jarayonining tarixiy-adabiy qonuniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

- Alisher Navoiy. 2013. *To'la asarlar to'plami*. 9-jild. 10-jildlik. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Amir Alisher Navoiy. 1323. *Majolis un-nafois*, ba kushishi Ali Asg'ar Hikmat, Manuchehri, Tehron.
- Uvhadi Bilyoniy, Taquiddin Muhammad. 1389. *Arafot ul-oshiqin va arasot ul-orifin. Ba tashihi Zabihulloh Sohibkoriy va Omina Faxr Ahmad*. 1-jild. Tehron: Mirosi Maktub.
- Xayyompur, Abdurrasul. 1340. *Farhangi suxanvaron*. Tabriz: Chopxona-yi shirkat-i sahhomiy-yi chop-i kitob-i Ozarbayjon.
- Davlatshoh Samarqandiy. *Amir Davlatshoh ibn Alouddavla*. Tazkirat ush-shuaro. Ba tashihi Eduard Braun. Leyden: Brill.
- Roziy, Amin Ahmad. 1389. *Haft iqlim*. Ba tashihi Sayyid Muhammad Rizo Tohiriy. 2-jild. Tehron: Surush.
- Sunbuliy Murod Odiliy. *Mir Husayn Do'st. Tazkira-yi Husayniy*. Lakhnau: Nul Kishvar, 1292 hijriy.
- Sabo, Muhammad Muzaffar Husayn. 1343. *Ruz-i ravshan. Ba ehtimomi Muhammad Husayn Ruknzoda Odamiyat*. Tehron: Kitobxonay-i Roziy.
- Faxriddin Ali Safiy Bayhaqiy. 1352. *Latoif ut-tavoif*. Ba tashihi Ahmad Gulchin Maoniy. Chopi 3. Tehron: Shirkat-i nasabii Iqbol va shurako.
- Gulchin Maoniy, Ahmad. 1363. *Tarixi tazkira-ho-yi forsi*. Jildi 1. Tehron: Kitobxonayi Sanoyi.
- Vola Dog'istoniy, Ali Quli Xon. 1391. *Riyoz ush-shuaro*. Ba ehtimomi Abulqosim Rodfar va Gita Ashidriy. 2-jild. Tehron: Pajuhishgoh-i ulum-i insoni.

Comparison of the original text and the Persian translation: “Majolis un-nafois” – “Hasht bihisht”

Parviz Izzatillaev¹

Abstract

Alisher Navoi’s biographical anthology “Majolis un-nafois” is regarded as one of the most significant sources in the history of Turkic literature for the study of poets’ lives and works, as well as the literary milieu of the fifteenth century. This work not only provides detailed information about the writers of its time but also occupies a distinctive place in the formation and development of the tazkira-writing tradition initiated by Navoi. The wide circulation of “Majolis un-nafo”is through copying in various cultural milieus, its translation into Persian, and its publication in later centuries serves as clear evidence of the sustained scholarly and cultural interest it has attracted.

Against this background, a comparative analysis of the “Tashkent edition” of “Majolis un-nafois” and the “Tehran edition” of “Hasht Bihisht” by Qazvini, with the aim of identifying textual differences and examining the reasons for these discrepancies, constitutes an important task in contemporary Navoi studies. The present research is devoted to this issue and seeks to determine the nature of the changes introduced by Qazvini in the course of translation, as well as to assess their impact on the essence of the tazkira and its value as a historical and literary source.

Key words: “*Majolis un-nafois*”, *Hakim Shah Qazvini*, “*Hasht bihisht*”, *manuscript*, *translation*, *textual research*, “*Tehran edition*”, “*Tashkent edition*”.

References

- Alisher Navoiy. 2013. *To’la asarlar to’plami*. 9-jild. 10-jildlik. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Amir Alisher Navoiy. 1323. *Majolis un-nafois*, ba kushishi Ali Asg’ar Hikmat, Manuchehri, Tehron.

¹ *Parviz Izzatillaev* – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi’i.

E-mail: parvizisovoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

For citation: Izzatillaev, P. 2025. “Comparison of the original text and the Persian translation: “Majolis un-nafois” – “Hasht bihisht”. *Uzbekistan: Language and Culture* 4: 89 – 109.

- Uvhadi Bilyoniy, Taqiuddin Muhammad. 1389. *Arafot ul-oshiqin va arasot ul-orifin. Ba tashihi Zabihulloh Sohikoriy va Omina Faxr Ahmad*. 1-jild. Tehron: Mirosi Maktub.
- Xayyompur, Abdurrasul. 1340. *Farhangi suxanvaron*. Tabriz: Chopxona-yi shirkat-i sahhomiy-yi chop-i kitob-i Ozarbayjon.
- Davlatshoh Samarqandiy. *Amir Davlatshoh ibn Alouddavla*. Tazkirat ush-shuaro. Ba tashihi Eduard Braun. Leyden: Brill.
- Roziy, Amin Ahmad. 1389. *Haft iqlim*. Ba tashihi Sayyid Muhammad Rizo Tohiriy. 2-jild. Tehron: Surush.
- Sunbuliy Murod Odiliy. *Mir Husayn Do'st. Tazkira-yi Husayniy*. Lakhnau: Nul Kishvar, 1292 hijriy.
- Sabo, Muhammad Muzaffar Husayn. 1343. *Ruz-i ravshan. Ba ehtimomi Muhammad Husayn Ruknzoda Odamiyat*. Tehron: Kitobxona-yi Roziy.
- Faxriddin Ali Safiy Bayhaqiy. 1352. *Latoif ut-tavoif*. Ba tashihi Ahmad Gulchin Maoniy. Chopi 3. Tehron: Shirkat-i nasabii Iqbol va shurako.
- Gulchin Maoniy, Ahmad. 1363. *Tarixi tazkira-ho-yi forsi*. Jildi 1. Tehron: Kitobxonayi Sanoyi.
- Vola Dog'istoniy, Ali Quli Xon. 1391. *Riyoz ush-shuaro*. Ba ehtimomi Abulqosim Rodfar va Gita Ashidriy. 2-jild. Tehron: Pajuhishgoh-i ulum-i insoni.